

ZAMONAVIY O'ZBEK ADABIYOTIDA TARJIMA ASARLARINING O'RNI VA AHAMIYATI

Pardayeva Saltanat

O'zbekiston Jahon Tillari Universiteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tarjima asarlarining zamonaviy o'zbek adabiyotidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tarjima orqali milliy adabiyot xalqaro adabiyot bilan o'zaro bog'lanadi, til boyiydi va jarayonlar rivojlanadi. Tarjima asarlari adabiy va madaniy almashinuv koprigini yaratadi va jamiyatda ma'naviy qadriyatlarni kengaytiradi.*

Kalit so'zlar

Tarjima, badiiy tarjima, milliy adabiyot, jahon adabiyoti madaniy adabiyoti, til almashinuvi, tarjimashunoslik.

Аннотация: *В данной статье анализируются роль и значение переводных произведений в современной узбекской литературе. Через перевод национальная литература связывается с мировой, язык обогащается, а литературные процессы развиваются. Переводные произведения создают мост литературного и культурного обмена и способствуют расширению духовных ценностей в обществе.*

Ключевые слова:

Перевод, художественный перевод, национальная литература, мировая литература, культурная литература, языковой обмен, переводоведение.

Annotation

This article analyzes the role and significance of translated works in modern Uzbek literature. Through translation, national literature becomes interconnected with world literature, enriching the language and enhancing literary processes. Translated

works create a bridge for literary and cultural exchange and broaden spiritual values within society.

Keywords:

Translation, literary translation, national literature, world literature, cultural literature, language exchange, translation studies

Kirish

Zamonaviy o'zbek adabiyotlari bugungi kunda jadallik bilan rivojlanib kelmoqda. Jahon adabiyotlari bilan uzluksiz aloqada bo'lish — adabiyotning sifat va mazmun jihatidan jahon adabiyotlari bilan raqobatlasha oladi. Shu nuqtai nazardan, tarjima asarlari — til va madaniyatlararo ko'priklari. Ular orqali biz boshqa xalqlar fikri, badiiy uslubi, an'analari va hayoti bilan tanishamiz. Tarjima nafaqat noma'lum asarlarni ona tilimizda o'qish imkonini beradi, balki o'zbek adabiyotini yangi shakl, uslub va bilan boyitadi. Tarjimalarga xalqlar o'rtasida ma'rifat tarqatish vositasi deb qarash, u orqali o'zga xalqlar bilan yaqinlashishni ko'zlash davom etib bordi. To XX asrgacha Sharq xalqlarining ko'plab madaniy, ilmiy, tarixiy, adabiy yodgorliklari o'zbek tiliga o'girildi. Ilmiy manbalarda aytilishicha, badiiy tarjima milliy adabiyotni global adabiyot jarayoniga jalb etadi. Tarjima asarlari orqali boshqa millatlarning adabiy merosi, badiiy tajribasi va estetikasini o'zbek tiliga qabul qilish mumkin bo'ladi. Aynan bir ijtimoiy haqiqatni yoritayotgan ikki til bir-biridan farqlanadi. Turli jamiyatlarda yashovchi kishilar dunyoni - o'zlariga xos ravishda ko'radilar, - degan edi Edvard Sepir. Sepirning bu g'oyasi keyinchalik Benjamin Li Uorf tomonidan tasdiqlangandi. Tarjima san'ati-tilni boyituvchi vosita hisoblanadi. Chet el adabiyotidan olingan iboralar, metaforalar, badiiy tasvirlar va uslublar o'zbek tiliga yangi shaklda kiradi va tilimiz leksik va badiiy jihatdan kengayadi. Ayniqsa badiiy tarjimada asl tildagi uslubiy xususiyatlarni saqlab yoki ular bilan mos ravishda tarjima qilish tilshunoslikni talab qiladi.

Tarjima asarlari yozuvchilar uchun namunadir. Yozuvchilar chet el adiblarining syujetlarini, obrazlar, badiiy tuzilmalar va mavzular bilan tanishib, o'z

ijodida qo'llay oladi. Tarjima asarlari nafaqat yozuvchilar uchun balki madaniy almashinuvlar uchun ham foydalidir. Misol uchun; tarjima asarlari orqali xalqaro g'oyalar, dunyoqarashlar, boshqa xalqlar qadriyatlari o'zbek jamiyatiga kiradi. Bu esa madaniy xabardorlik, global tushuncha va boshqa madaniyatlar nisbatan hurmatni shakllantiradi. Ayniqsa yosh avlod uchun, tarjima asarlarini o'qish va uni tushunib dunyoqarashlarini kengaytirishi va fikrlarini rivojlantirishi mumkin. Alisher Navoiy asaarida badiiy tarjimaning yangi-yangi shakllarini qo'lladi. Tarjimoni yuksak ijod darajasiga olib chiqdi. Navoiy o'zi bu asarlariga yozgan sharhlarida ularni tarjima deb kamtarlik bilan izohlasa-da, lekin aslida bular tarjimadan yuksalib chiqqan, tom asliy-original asarlardir. Navoiy tarjima deganda buyuk kamtarlik ko'rsatib ustozlarga payravlik qilganini aytdi. Bu payrav asarlarda u tamomila o'z original fikrlarini olg'a surdi, o'zi ochgan original badiiy shakllarni istifoda etdi. Chunonchi, u shunday deydi: "Bu orzu ko'p dag'dag'a solur erdikim, turkiy tili bila men ham ul laolini (durlami) orasta qilg'aymen..." "mo'g'ul uslubi" bilan men ham ul javohirlami pirosta (bezash, terish) etgaymen... to andin turk ulusiga ham hazzi shofi (qoniqarli, yetarli rohat) va bahrayi vofi (to'liq bahra) muyassar bo'lg'ay" (o'sha jild, 128-b.). Navoiy bu yerda turkiy til deganda, avvalo o'zbek tilini nazarda tutadi. Uning turkiy til degani barcha o'rinlarda o'zbek tili deganidir. Orzuning dag'dag'a solishi deganda, u ijodiy ilhom bezovtaligi va tinimsiz chaqiriqlarini bir-biriga munosib, muvofiq va uyg'un tarzda terib chiqish, tartib berishni ko'zda tutadi. Bu ham ijod, ham tarjima ijodining juda ham muhim shartlaridan biridir. Tarjimon huddi ijodkor kabi ilhomlanmaguncha san'at darajasidagi tarjima asarini yaratishi qiyin. Ilhomyorlik, orastalik, ijodiy tartibga intilish va buni ish usuliga aylantirish ulug' tarjima asarlar yaratilishining shartlaridandir. Tarjima shartlari deganimizda biz Navoiy ko'rsatgan ushbu shartlar-prinsiplarni ham qayd etib o'tamiz va ularni tarjima ijodining hozir ham o'z kuchini yo'qotmagan eng muhim prinsiplari qatoriga kiritamiz. XV asrda, mumtoz adabiyotimiz gullab yashnagan davrida, tarjimonlikka bo'lgan e'tibor yo'qolmagan edi. Alisher Navoiy o'zbek tilining rivojlanishiga katta xissa qo'shgan. Buyuk o'zbekshoiri Alisher Navoiy adabiy va ilmiy asarlar bilan band bo'lishiga qaramay u

o‘zining ustozlari Abdurahmon Jomiyning “Chil hadis”, “Nafohot ul-uns”, “Nazm ul javohir” kabi asarlarini turkiy tilga tarjima qilgan. Bulardan tashqari u Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” asaridagi ba’zi hikoyalarni tarjima qilgan. XV—XVI asrlarda Alisher Navoiyning asarlari tarjimonlarning e’tiborini o‘ziga qaratgan. XVI-asrda uning “Majolis un-nafoyis” asari fors tiliga Faxri ibn Sulton tomonidan tarjima qilingan. Kristofer Armoni Alisher Navoiyning “Sabbai sayyor”ini tarjima qilgan va italyan tilida nashr qilgan. Keyinroq esa bu asarlar nemis, ingliz va boshqa Yevropa tillariga o‘girildi. Ingliz tarjimoni Edvard Braun, rus tarjimonlari Beresin, Bartold va boshqalar Alisher Navoiy asarlarini tarjima qilishgan. Aksariyat tarjimonlar so‘zma-so‘z o‘girishgan. Alisher Navoiy o‘zining “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida turkiy

tillarning asoslari va boyliklarini to‘liq tasvirlagan. U turkiy tilning sinonim so‘zlarining xilma-xil boyligini tahlil qildi va ularning fors tiliga turli xil yo‘l bilan tarjima qilib ko‘rsatib bera oldi. Buyuk o‘zbek shoiri tarjimonlar o‘zlarining tarjimalarini so‘zma-so‘z emas, balki ma’noma-ma’no tarjima qilishga e’tiborlarini qaratishi lozim deb hisoblagan.

Xulosa

Tarjima asarlari-zamonaviy o‘zbek adabiyotining rivojida muhim rol oynaydi. Ular tilni boyitadi, til va badiiy ifodalarni rivojlantiradi va o‘quvchilarning ma’naviy savodxonligini oshiradi. Tarjima madaniyatlararo bog‘lovchi, tafakkurni kengaytiruvchi va jamiyatni dunyo bilan bog‘laydigan vosita sifatida o‘z o‘rnini mustahkamlagan. Shu bois, tarjima asarlarining o‘rni va ahamiyati zamonaviy o‘zbek adabiyotida beqiyosdir. Xulosa qilib shuni aytish joizki, tarjima nafaqat tashqi literaturani o‘zlashtirish, balki milliy adabiyotning zamonaviy rivojlanishiga turtki bo‘ladi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘afurov I., Mo‘minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. Toshkent: Tafakkur Bo‘stoni, 2020.
2. Choriyeva Sh. Badiiy tarjima muammolari va metodikasi. Toshkent, 2019.
3. Venuti L. The Translator’s Invisibility: A History of Translation. London: Routledge, 2012.
4. Steiner G. After Babel: Aspects of Language and Translation. Oxford: Oxford University Press, 1975.
5. Tarjima nazariyasi: Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma /I.G‘afurov, O.Mo‘minov, N.Qambarov. - Toshkent: Tafakkur-Bo‘stoni, 2012. 216 b.
74-75-betlar.
6. Tarjima nazariyasi: Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma /I.G‘afurov, O.Mo‘minov, N.Qambarov. - Toshkent: Tafakkur-Bo‘stoni, 2012. 216 b.
68-69- betlar.
7. Tarjima nazariyasi: Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma /I.G‘afurov, O.Mo‘minov, N.Qambarov. - Toshkent: Tafakkur-Bo‘stoni, 2012. 216 b.
67-68-betlar.
8. Tarjima nazariyasi: Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma /I.G‘afurov, O.Mo‘minov, N.Qambarov. - Toshkent: Tafakkur-Bo‘stoni, 2012. 216 b.
25-26.